

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

2022 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

2022 Vol. 1

**www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosarlari: Zaynobiddin Abdirashidov

Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G'aybulla Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jo'raqo'ziyev.

Tahrir hay'ati

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Üşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O'zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyoung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Oqilxon Ibrohimov (O'zbekiston)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:

Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editors in Chief:

Zaynabiddin Abdirashidov

Executive secretary:

Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jurakuziev.

Editorial Committee

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdulahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Oqilkhon Ibrohimov (Uzbekistan)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Samixon Ashirboyev

Alisher Navoiy nasriy asarlari matnida gaplarni chegaralashga doir.....6

Baxtiyor Abdushukurov

Alisher Navoiy asarlaridagi etnonimlar.....19

Zulxumor Xolmanova

Omonimlar – tafakkur omili.....30

Sanjar Mavlyanov

O'zbek tili diplomatik terminlari tizimida semantik munosabatlar.....45

Elyor Xonnazarov

O'zbek tilshunosligida zamonni ifodalovchi grammatik shakllar tasnifi...55

Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik

Tanju Seyhan

Ali Şir Nevâyî ve Kalem.....66

Muhittin Gümüş

Bâbürnâme'nin edebî tür açisinden özellikleri.....78

Fan. Ta'lim. Metodika

Dilnavoz Yusupova

"Xamsa" dostonlarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalar va metodlardan foydalanish ("Farhod va Shirin" misolida).....89

San'at

Oqilxon Ibrohimov

Nazm va navo xususida.....104

CONTENT

Linguistics

Samikhan Ashirboev

Alisher Navoi's prose text is about limiting sentences.....6

Bakhtiyar Abdushukurov

Ethnonyms in the works of Alisher Navoi.....19

Zulkhumor Kholmanova

Homonyms – a factor of wisdom.....30

Sanjar Mavlyanov

Semantic relations in the system of diplomatic terms of the
Uzbek language.....45

Elyor Khonnazarov

Classification of Grammatical Tense in Uzbek Linguistics.....55

Literature. Translation studies

Tanju Seyhan

Ali Şir Nevâyî and Pen66

Muhittin Kumush

Features of Baburname as a literature genre.....78

Science. Education. Methodology

Dilnavoz Yusupova

Modern technologies and use of methods (in the example
of "Farhod and Shirin").....89

Art

Oqilkhon Ibrohimov

About poetry and melody.....104

Omonimlar – tafakkur omili

Zulxumor Xolmanova¹

Abstrakt

Maqolada omonimlarning tafakkurni rivojlantirish omili sifatidagi ahamiyati ko'rsatilgan. Alisher Navoiyning omonimlarga oid mulohazalari tahlil qilingan. Omonimlarning hosil bo'lish usullari, turkiy tillarda semantik usulning faol kuzatilishi qayd etilgan. Omonim asosida badiiy san'atlar, tajnis san'ati, iyhom san'atining tafakkurni yoritishdagi o'rni ko'rsatilgan. Turkiy xalqlarning "xos ash'ori" sifatida tilga olingan tuyuq janri, uning lisoniy ong, tafakkur, idrok bilan bevosita aloqadorligi asoslangan. Omonim ishtirokidagi matnlarning, badiiy san'atlarning nutqni rivojlantirishdagi o'rni, tafakkurni o'stirishdagi ahamiyati yoritilgan.

Omonimlardan foydalanish, omonimlarni keng yoyish usullaridan biri sifatida omonimlarning mukammal izohli lug'atini yaratish tamoyillari ko'rsatilgan. Omonimlar lug'atini shakllantirishdagi vazifalar keltirib o'tilgan. Omonimiya hodisasining inson miya faoliyati, idrok darajasi bilan bog'liqligi, omonim bilan bog'liq tuyuq, askiya janrlari, tajnis, iyhom san'atlari, ularning fikrni rivojlantirishdagi ahamiyati, ta'lim jarayonida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan xususiyat ekanligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: *omonim, omonim leksemalar, semantik usul, turkum sinkretizmi, tajnis, iyhom, tuyuq, til, tafakkur, idrok, lisoniy ong, lingvokulturologiya, stereotip.*

Kirish

Omonim so'zlar – umumiy ma'no unsurlariga ega bo'lmagan, tasavvur jihatdan bog'lanmagan, lekin bir xil yozilib, bir xil talaffuz etiladigan so'zlardir. Ular orasida semantik aloqa bo'lmaydi.

Omonimlar mumtoz adabiyotda tajnis san'ati va tuyuq janrini yaratishda, askiya payrovlarida esa so'z o'yini va qochiriqlar asosi sifatida ishlatiladi. So'z ustalari, ayniqsa, shoirlar (Xorazmiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, So'fi Olloyor, Habibiy va boshqalar) poetik ta'sirchanlikni oshirishda omonimiya hodidasidan mahorat bilan foydalan-

¹Xolmanova Zulxumor Turdiyevna – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: zulxumor@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-8236-4267

Iqtibos uchun: Xolmanova, Z. T. 2022. "Omonimlar – tafakkur omili". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1: 30-44.

ganlar.

Tajnis aytish, shakli bir xil, ammo ma'nosi har xil so'zlardan foydalanish turkiy xalqlarning Alisher Navoiy aytgan "tez fahm, baland idroklik" xususiyatini yoritishga xizmat qiladi.

Ikki yoki undan ortiq so'zning bir xil yozilishi va bir xil talaffuz etilishi natijasida omonimlar yuzaga keladi. Omonimlar quyidagicha hosil bo'ladi:

1. Aslida turli shakllarda bo'lgan leksemalarning hozirgi grafika talablari asosida bir xil yozilishi natijasida omonimlar shakllanadi. Masalan, hozirda omonim hisoblangan to'rt xil ma'nodagi *o't* so'zining har biri (*o't* I "o'simlik"; *o't* II "olov"; *o't* III "o'tpufak"; *o't* IV "harakat") tarixiy yozilishi jihatidan farqlanadi.

2. Boshqa tillardan o'tgan so'zlarning o'zbek tilidagi lug'aviy birliklar bilan shaklan teng kelib qolishi natijasida omonimlar yuzaga keladi: *atlas-atlas*, *etik-etik*, *tok-tok*.

3. Ko'p ma'noli so'z ma'nolari o'rtasida bog'lanishning yo'qolishi natijasida omonimlar hosil bo'ladi: *dam* (*hordiq*), *dam* (*bosqon*), *dam* (*nafas*); *gap* (*til birligi*), *gap* (*yig'in*), *uloq* (*echki bolasi*), *uloq* (*sport turi*).

Omonimlikning birinchi usuli Alisher Navoiy davrida, deyarli kuzatilmaydi. Chunki o'sha davrda yozuv har xilligi muammosi bo'lmagan. Ikkinchi usuldagi omonimlik, asosan, turkiy va forsha-tojikcha so'zlar o'rtasida uchraydi: *bog'* (turkiy "o'ram") – *bog'* (fors. "daraxtzor").

Omonim shakllanishining uchinchi ko'rinishi semantik usuldagi so'z yasalishiga misol bo'ladi. Davrlar osha bir so'z ma'nolari o'rtasidagi bog'lanish yo'qolib, shakldosh so'zlar yuzaga keladi. Etimologik kuzatishlar, semalar tahlili yordamida bu so'zlar aslida bir asosdan shakllangani ma'lum bo'ladi.

Turkiy tillarda omonimlikni yuzaga keltiruvchi hodisalar qadimgi turkiy til so'zlariga xos turkum sinkretizmi o'z ifodasini topgan. E.V.Sevortyan tomonidan "fe'l-ot asoslar" deb nomlangan bu hodisa turkiy tillarning boshlang'ich taraqqiyot bosqichlarida bir bo'g'inli leksik asosning ayni bir lug'aviy ma'noga ega bo'lgani holda ism sifatida ham, fe'l sifatida ham ishlatilishini ifoda etadi. E.V.Sevortyan o'z qarashlarida "fe'l-ot omonimligi", "fe'l-ot omofor-malar" terminlarini qo'llagan. Shu bilan bir qatorda, bu hodisani "leksik-morfologik sinkretizm" deb qarash to'g'riroq ekanligini e'tirof etgan [Sevortyan 1974, 40]. Hozirgi o'zbek tilidagi *yoz*, *tut*, *shish*, *to'y* kabi so'zlarda turkum sinkretizmi xususiyatlari namoyon bo'ladi [Dadaboyev 2015, 46].

Endilikda omonimlar dunyo tilshunosligida e'tibor berilayotgan lingvistik masala hisoblanadi. Omonimlik hodisasi fikrni ta'sirchan ifoda etishda, tinglovchining e'tiborini jalb etishda ahamiyatlidir. O'z navbatida omonim so'zlarning tushunilishi tinglovchidan bilim, mahorat, tafakkur hamda fahmni talab etadi. Mumtoz adabiyotdagi so'z o'yinlari, tajnis san'ati, iychom san'ati fikrni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Omonimlarning nazariy asoslari, tafakkurni rivojlantirishdagi belgilovchi xususiyatlari, nazariy asoslari, dastavval, Alisher Navoiy tomonidan ishlab chiqilgan. Omonim so'zlarni tavsiflashda, ularning xususiyatini yoritishda "Muhokamat ul-lug'atayn"dagi ma'lumotlar qimmatli manba hisoblanadi.

O'zbek xalqining ma'naviy tog'lari, azim qoyalari bisyordir. Ularning har biri o'ziga xos viqor, o'zgacha mahobatga ega.

Tafakkur mulkining sultoni Alisher Navoiy dunyo ilm ahliga hayot qonuniyatlari, azaliy muammolar, umr haqidagi mushohadalari bilan saboq bergan ulug' allomadir. Buyuk mutafakkirning

*Olam ahli bilingizkim ish emas dushmanlig',
Yor o'ling bir-biringizgakim erur yorlig' ish*

degan misralari jahon ahlining yashash mezonlarini belgilab kelmoqda.

Alisher Navoiy nafaqat ma'naviy olam, balki ilmiy bilishda ham bir qator fikr-mulohazalar bildirganlar. Bu qarashlarning aksariyati hozirgi kunda zamonaviy yo'nalishlarning muhim masalalari hisoblanadi. Ko'rinadiki, buyuk alloma tafakkuri hayot haqiqatlarini, abadiy mavzularni, hayotiy masalalarni aql ko'zlari bilan ilg'ay olganlar.

Taniqli tilshunos olim A.Nurmonovning etirof etishicha, "otabobolarimiz qoldirgan yozma yodgorliklarni sinchiklab o'rgansak, bu asarlarda tilshunoslikning bir qancha masalalari Yevropa olimlaridan ancha oldin bayon qilinganiga guvoh bo'lamiz" [Nurmonov 2012, 11]. Olim tomonidan Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamahshariy, Alisher Navoiy, Bobur kabi ajdodlarimizning lingvistik qarashlari talqin etilgan [Nurmonov 2012, 15].

Zamonaviy tilshunoslikning lingvokulturologiya yo'nalishida olam manzarasini tasvirlash, xalqlarning o'ziga xos, milliy xarakterini namoyon etuvchi, mental ong bilan bog'liq tushunchalar, ya'ni stereotiplar haqida so'z yuritiladi. Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn"da stereotip masalasida ham to'xtalgan. Shoir "tez fahmlik", "yuksak idrok", "samimiylik", "poklik" belgilarini turkiy xalqlar-

ga xos, “aqllilik”, “ilmni fahmlash”, “komillik”, “fozillik” belgilarini sartilarga xos stereotip sifatida qayd etgan: *“andoq ma’lum bo’lurki, turk ...tez fahmroq va baland idrokroq va xilqati sofroq va pokroq maxluq bo’lubtur va sart turkdin taaqqul va ilmida daqiqroq va kamol va fazl fikratida amiyroq zuhur qilibdur*. Bu xalqlarga xos belgilarni turklarning sidqidil, sof, to’g’ri niyatiga, sartilarning ilm, fan va hikmatlariga bog’laydi: *... va bu hol turklarning sidq va safo va tuz niyatidin va sartilarning ilm va funun va hikmatidin zohir durur”*.

Alisher Navoiy *tez fahmroq va baland idrokroq* belgilariga alohida e’tibor qaratgan.

Turkning tezfahm va idroki bilandligi omillari “Muhokamat ul-lug’atayn”da keltirilgan.

1. Asarda turkiy tilda umumiy tushunchalarni anglatuvchi so’zlardan tashqari, juz’iy tushunchalarni bildiruvchi so’zlarning ko’pligi va ularning ayrimlari fors tiliga ham o’tganligi qayd etilgan.

2. O’zbek tilida fors tilida bo’lmagan, lekin nutq uchun zarur bo’lgan grammatik shakl va unsurlarning mavjudligi, turkiy tillarda kelishik kategoriyasi borligi, fors tilida esa kategorial ma’noga ega emasligi haqida mulohazalar bildirilgan.

3. Omonim so’zlarning ko’pligi, bunday so’zlar adabiyotda tajnis va iyhom san’atlari uchun zarurligi aytilgan [Rahmonov 2014, 130].

4. Tajnis va iyhom san’atiga asoslanadigan tuyuq janrining faqat turkiy xalqlarda uchrashi qayd etilgan: *“Yana she’rda barcha tab’ ahli qoshida ravshan va majmu’ fusaho ollida mubarhandurki, tajnis va iyhom bag’oyat kulliydur*. Va bu farxunda iborat va xujasta alfoz va ishoratda forsiddin ko’proq tajnis omiz lafz va iyhom angez nukta borki, nazmg’a mujibi zeb va ziynat va boisi takalluf va san’atdur... ham turk shuarosi xos sasidurki, sartda yo’qtur va muni *tuyuq derlar”*. Tuyuq janri va uning asosi bo’lgan tag ma’no, bir xil shakl botinida yashiringan turfa ma’no-mazmunlar turkiy xalqlarning zehni, aql-idroki, zukko tabiati bilan bog’liq. Turkiy xalqlar poetik ijodiga xos askiya janri, topishmoqlar, so’z o’yinlari yuksak darajadagi tafakkur mahsullari hisoblanadi.

Alisher Navoiy turkiylar badiiy so’z san’ati, tajnis va iyhomni ko’p qo’llashlari haqida yozadi. Nazmga zeb-ziynat beruvchi takalluf va so’z o’yinining turkiylarda forsiylardagiga qaraganda ko’proq ekanligiga to’xtaladi: **Ot** so’zini misol keltiradi: *“ot lafziki, bir ma’nisi alamdur, yana bir ma’nisi markabdur va yana bir ma’nisi amrdurki, toshni yo o’qni ot, deb buyurg’aylar:*

Chun pari-yu hurdur oting, begim,

*Sur'at ichra dev erur **oting**, begim,
Har xadangikim, ulus andin qochar,
Notavon jonim sari **oting**, begim.*

Ushbu tuyuqda ishlatilgan birinchi misradagi **ot** so'zining ma'nosi - "ism", ya'ni: "Begim, sening isming hurdur, paridur".

Ikkinchi satrdagi ot "hayvon" ma'nosida kelgan: "Sening oting tezlikda dev erur". To'rtinchi misradagi **ot** - harakat fe'li: Har kim o'zini olib qochadigan g'amza o'qini notavon jonim tomon oting".

Bu she'rda tajnisi tom, to'liq omonimlikka asoslanilganini ta'kidlab, tuyuq turkiy xalqlarning xos janri ekanligini, bu janrning sartlarda uchramasligini aytib otgan [Xolmanova 2021, 58]. Navoiy bu haqda "Mezon ul-avzon" asarida fikr bildirganini qayd etadi: "Va bu ikki baytki, tajnisi tomdur, ham turk shuarosi xos sasidurki, sortda yo'qtur va muni tuyug' derlar. Va muning ta'rifin "Mizonul-avzon" otlig' aruzga bitilibdur, anda qililibdur" [Navoiy 2011, 9].

Alisher Navoiyning tuyuq janridagi mahorati olimlar tomonidan ham e'tirof etilgan: "Ayniqsa, she'riyatda eng qiyin san'at tajnis va iyhom bo'lib, shoir bir so'zni ikki ma'nonada qo'llaydi va ikkinchi ma'nosi - yashirin qirrasi o'ta ta'sirchan yoki muhim bo'ladi. Bu hodisa fors adabiyotiga ham yot emas, albatta. Ammo o'zbek tilidagidek bir so'zni uch-to'rt ma'no ifodasiga yaraydigan tom tajnislik holati forsiyda deyarli uchramaydi. Navoiy bunga **ot**, **it**, **o't** kabi so'z tajnislari asosida yaratilgan tuyuqlarni misol keltiradi [Ibragimova 2021, 180].

Alisher Navoiy uch xil ma'nodagi **it** lafzi qo'llangan tuyuqni ham keltiradi:

Yana it lafzi va anda dog'i bu nav' uch ma'ni bor, andoqki:

*E raqib, o'zni anga tutsang ham **it**,
Bizga rahm aylab uning ko'yidin **it**.
Garchi bor do'zaxcha ishqing shu'lasi,
Bizni o'z ilgining bila ul sori **it**.*

Birinchi misradagi it hayvon ma'nosidagi so'z. Ya'ni: Ey raqib, o'zingni unga itdek tutsang ham... (bu o'rinda "sadoqatli bo'lmoq, mudom ergashib yurmoq" ma'nolari ifodalangan). Ikkinchi misradagi it "o'tmoq", "kechmoq" ma'nosida kelgan: "Bizga rahm qilib uning bahridan o't, voz kech". Bu ma'nodagi **it** so'zi o'zbek adabiy tilida qo'llanmaydi. Adabiy tilda "uloqtirmoq" ma'nosidagi *itqitmoq* degan so'z ishlatiladi. Bu so'z Navoiy tuyuqlarida qo'llangan it asosining orttirma nisbat shaklidir. To'rtinchi misradagi **it** "elt", "olib bor" ma'nolarida kelgan: "Garchi ishqing shu'lasi do'zaxcha bo'lsa ham

(bu yerda ishqning azoblari nazarda tutilgan), bizni unga o'z qo'ling bilan elt'.

Alisher Navoiy *tush, yon, bor, sog'in, tuz, ko'k* so'zlari asosidagi omonimlik hodisalarini qayd etgan. Ularning izohini bergan: *Va tush lafzida ham bu nav' uch ma'ni bor. Va yana yon lafzida va yoq lafzida ham bu holdur va bu nav' lafziki, anda uch ma'ni bo'lg'ay, had va hasrdin ko'prak topilur* [Navoiy 2011, 10].

Alisher Navoiy *tush, yon* omonimlarining uch xil ma'noga ega ekanligini qayd etadi, lekin ma'nolarini keltirmagan. Bu omonim so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilida ham ishlatiladi: *tush* I “uyquda ko'riladigan ro'yo”; *tush* II “yuqoridan pastga qaratilgan harkat”; *tush* III “payt”;

Yon I “tomon”; *yon* II “olovning harakati”; *yon* III “qaytmoq”. Faqat “qaytmoq” ma'nosidagi *yon* III so'zi hozirgi o'zbek tilida qo'llanmaydi.

Alisher Navoiy to'rt ma'nodagi omonim so'zlarni keltiradi: *Va xili lafz ham topilurki, to'rt ma'nisi bo'lg'ay, andoqki, bor lafziki, bir ma'nisi mavjudlug'dur va bir ma'nisi amrdur boruvig'a va bir ma'nisi yukdur va bir ma'nisi samardur* [Navoiy 2011, 10]. Hozirgi o'zbek adabiy tilida **bor** omonimining “mavjudlik”, “amr, buyruq” ma'nodagi ko'rinishlari ishlatiladi. “Yuk” va “samar (meva)” ma'nolaridagi *bor* omonimlari qo'llanmaydi.

Besh xil ma'nodagi omonim so'zlar ham borligini qayd etadi: *Va andoq lafz ham topilurki, besh ma'nisi bo'lg'ay: sog'in lafzidekki, bir ma'nisi yod qilmoqqa amrdur va biri sutluk qo'y otidur va ishq masti va majnuni va bemori muqobalasida sog'in desa, har biriga itloq qilsa bo'lur* [Navoiy 2011, 10].

Sog'in I “qo'msamoq”; *sog'in* II “sog'iladigan jonivorga nisbatan ishlatiladigan belgi bildiruvchi so'z” omonimlari hozirgi o'zbek tilida ishlatiladi. *Sog'in* III “ishq masti”, *sog'in* IV “majnunvash”, *sog'in* V “bemor” hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanmaydi.

Alisher Navoiy keltirgan *tuz* omonimi olti ko'rinishdagi shakldoshlik hodisasiga misol bo'ladi:

Yana andoqki, tuz lafziki necha ma'ni iroda qilsa bo'lur. Biri tuzki, o'q yo nayzadek nimani derlar Yana– tuz hamvor dashtni derlar. Yana tuz – rost kishini derlar. Yana tuz – sozni tuzmakka amr qilmog'ni, yana tuz – ikki kishi orasida muvofaqat solmog'ni (derlar). Yana tuz – bir majlis asbobini ham desa bo'lur [Navoiy 2011, 10].

Bu omonimlar orasida faqatgina *tuz* V “biriktirish, muvofiq keltirish” (uyushma tuzish) o'zbek adabiy tilida ishlatiladi. Hozirgi o'zbek tilida “natriy xlor, iste'mol ne'mati” ma'nosidagi *tuz* so'zi ham

mavjudki, Alisher Navoiy bu soʻzni qayd etmaydi.

Tuz I “oʻq, nayza”, tuz II “dala, tekislik, dasht”, tuz III “toʻgʻri soʻz kishi”, tuz IV “sozni rostlash”; tuz VI “majlis asbobi” kabi omonimlar hozirgi oʻzbek adabiy tilida ishlatilmaydi.

Alisher Navoiy tuz omonimligidan matnda mahorat bilan foydalangan: *...va bu hol turklarning sidq va safo va tuz niyatidin va sortlarning ilm va funun va hikmatidin zohir durur*”.

“Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da uch xil **tuz** omonimi keltirilgan. Tuz II. 1. Tekis yer, keng tekislik. *Tuganmas konimizdir togʻ bilan tuz*. Habibiy. *Yoʻl yuramiz qumloq, suvsiz tuzlarga...* «Hasanxon». Bu soʻz hozirgi oʻzbek shevalarida qoʻllanadi. Adabiy tilda kuzatilmaydi. *Tuz* niyati deganda Navoiy soʻzning “toʻgʻri” maʼnosini nazarda tutadi, *turkiy* xalqlarning tabiati toʻgʻriligi, qingʻirlikni bilmasligini taʼkidlaydi.

Alisher Navoiy *koʻk* omonimining olti xil koʻrinishini keltirgan: *koʻk* I “osmon”, *koʻk* II “kuy”, *koʻk* III “koʻklam”, *koʻk* IV “qadoq”; *koʻk* V “yashillik”, *koʻk* VI “yalanglik”. Undan ortiq maʼnolarda ham omonimlik hosil qilish mumkinligini aytadi:

Va koʻk lafzin ham necha maʼni bila isteʼmol qilurlar. Biri koʻk – osmonni derlar. Yana koʻk ohangdur. Yana koʻk tegrada koʻklamdur. Yana koʻk qadogʻni ham derlar. Yana koʻk sabza va oʻlangni dogʻi derlar. Bu navʼ alfoz hamki, uch maʼni va toʻrt maʼni va ortugʻroqkim, iroda qilsa boʻlgʻay, koʻp borki, forsiy alfozda andoq yoʻqtur [Navoiy 2011, 10].

Koʻpgina tadqiqotlarda izlanuvchilar *koʻk* soʻzining “Muhokamat ul-lugʻatayn”dagi maʼno izohlari, semantik xususiyatlari, omonimlik maʼnolari xususida toʻxtalgan.

“*Koʻk rang* maʼnosidagi tub umumturkiy *kök* leksemasi Navoiy asarlarida ham keng oʻringa ega boʻlgan: *... har gunbazi sýmýz=i manzilatdin falakniñ kök gunbazidin bash ötkäribdör . Tiniq osmon rangidagi; moviy, zangori* [OʻTIL 2006, 412] sememali *kök* leksik birligi ilk bor Kultegin bitigtoshida koʻzga tashlanadi: *...ýzä kök täñri asra yagʻыз yer* [DTS 1969, 312]. I lk eski turkiy til [DLT 1960, 317] va XIII–XIV asr eski turkiy til [SUY 1966, 617] obidalarida leksema ayni maʼnoda qoʻllangan. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da *koʻk* soʻzi polisemantik leksik birliklar tarzida izohlanib, uning yuqoridagi maʼnosi qatorida *yer ustida gumbaz shaklida koʻrinib turadigan havo qatlami; osmon; oʻsayotgan oʻt-oʻsimlik, oʻt-oʻlan; maysa, koʻkat; kashnich, janbil, ukrop kabi ovqatga qoʻshilib yeyiladigan rezavor oʻsimliklar, koʻkat* maʼnolari semalari borligi keltirilgan [OʻTIL 2006, 412].

Tadqiqotchi Sh. Egamova “*koʻk*” leksemasining koʻp mano-

li soʻz emas, balki omonim ekanligini taʼkidlaydi: “Bizning nazari-mizda, keyingi semalar tahlil etilayotgan leksemaning qoʻshimcha maʼnolari boʻlmay, balki *kök* soʻziga omonim boʻlgan alohida leksik birliklarga oid maʼnolardir. Bu fikrga Mahmud Koshgʻariy lugʻati [DLT 1960, 317; 1963, 146] hamda Navoiyning “Muhokamat ul-lugʻatayn” asaridagi mulohazalar ham asos boʻladi” [Egamova 2019, 304].

Omonimlarga asoslangan soʻz oʻyinlari, aytishuvlar, askiya janri ham fikrni rivojlantirish omili sifatida tan olingan. Askiya jan-rining tengsiz, nodir madaniyat belgisi sifatida YUNESKO roʻyxatiga kirgani omonimlarning dunyoqarash, tafakkurni, baholash qobiliya-tini shakllantirishda muhim oʻrin tutishini koʻrsatadi. Afsuski, hozir-da askiya tor dorada qoʻllanib, tor doiradagi shaxslarning manfaatiga yoʻnaltirilganicha qolgan. Askiya talqinidagi subyektiv yondashuvni yoʻqotib, mazmunini kengaytirish, taʼlim jarayonida keng qoʻllash ahamiyatlidir.

Oʻzbek tili omonimlari lugʻatini yaratishda oʻzbek tili lugʻat boyligining keyingi yarim asrlik muddatdagi taraqqiyotini kuza-tish, yuzaga kelgan omonimik paradigmalarni aniqlash lozim boʻla-di. Qardosh tillardagi lingvistik jarayonlar, lugʻaviy sath taraqqiyoti, turkiy tillar omonimiyasiga xos jihatlarni qiyosiy planda oʻrganish ham amaliy natija beradi. Turkiy tillardagi turkum sinkretizmi feʼl-ot omonimligiga nisbatan qoʻllangan boʻlsa-da, amalda bu hodisa bosh-qa turkumlar doirasida ham kuzatiladi. Masalan, oʻzbek tilida *yupqa* I (sifat) –*yupqa* II (ot); *yosh* I (sifat) – *yosh* (ot). Turk tilida bunday usulda yuzaga kelgan omonimlar koʻp uchraydi: *Temel* I (ot) –asos, *temel* (sifat)II – asosiy; *takım* I– *toʻplam*, *takım* I– *kostyum-yubka* [Abdurahmonova 2022, 54].

Soʻz maʼnosini oʻzlashtirishning asosiy yoʻllaridan biri lugʻat-lardan foydalanishdir. 2016-yil 13-mayda eʼlon qilingan “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universi-tetini tashkil etish toʻgʻrisida”gi farmonda belgilangan “...oʻzbek tili-ning asosiy tabiati va xususiyatlarini toʻla aks ettiradigan mukam-mal akademik va oʻquv grammatikalarini yaratish, uning tovushlar tizimi va ularning yozuvda aks etishi, joriy imlo qoidalarini takomil-lashtirish boʻyicha ilmiy asoslangan takliflar tayyorlash, turli mavzu va yoʻnalishlar boʻyicha lugʻat va qomuslar, risola va darsliklar yara-tish” vazifalari omonimlarga doir lugʻatlarning zarurligini asoslaydi.

Globalashuv jarayoni, milliy til taraqqiyoti, uning qoʻllanish doirasini kengaytirish, texnika tiliga aylantirish, axborot-kompyuter uslubini shakllantirish davr talabiga aylandi. Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyi va nufuzini oshirish mamlakatimizda siyosat

darajasiga ko'tarildi. Tilning mavqeyini mustahkamlash, birinchi navbatda, uning xususiyatlarini ona tili sifatida o'zlashtirish bilan belgilanadi.

Qayd etilgan farmonda "o'zbek tili va adabiyotini, uning o'ziga xos xususiyatlarini, ilmiy-nazariy, falsafiy-estetik asoslarini, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini chuqur o'zlashtirgan, davr talblariga javob beradigan yuksak malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash" vazifasi ham qo'yilgan. Ma'lumki, mumtoz manbalarda til va tafakkur mutanosibligiga alohida e'tibor qaratilgan. Matn faqat axborot berish vazifasini emas, emotsional-ekspressiv, akkumulyativ funksiyalarni ham bajaradi. Mumtoz adabiyotdagi iyhom, tajnis, topishmoq, askiya janrlari tafakkurni charxlashga xizmat qilgan. O'zbek tili yo'nalishi bo'yicha tayyorlanadigan mutaxassis kadrlardan lug'at sathi, so'z ma'nosi, semema, semalar taraqqiyotini, omonimlar bilan bog'liq so'z o'yinlari, badiiy san'atlarni, shakl va ma'no munosabatini mukammal egallashlari talab etiladi.

O'zbek xalqi VIII asrdan 1929-yilgacha arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvidan foydalangan. Arab alifbosida unli tovushlarning aksariyat hollarda ifodalanmasligi omonim so'zlar miqdorining hozirgiga nisbatan ko'p miqdorda bo'lishini ta'minlagan. Omonim shakllar tafakkurning takomillashuviga, idrokning mukammallashuviga zamin yaratgan. Tilning tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlari borasida omonimlar muhim o'rin egallaydi. Ushbu omillar o'zbek tili omonimlarining yaxlit, mukammal lug'atini yaratishni taqozo qiladi.

Shakli bir xil, ma'nosi har xil bo'lgan bu so'zlar ko'proq badiiy uslubda modal, uslubiy ma'nolarni anglatishda vosita bo'ladi. Omonimlik hodisasi bir turkum doirasida yoki bir necha turkum doirasida sodir bo'ladi. Bir turkum doirasidagi omonimlarga grammatik shakllar qo'shilganda ham omonimligini saqlab qoladi: *Biz yoqqan o'tlarimizni o'chirdik. Biz ekan o'tlarimizni o'rdik.* Bu esa omonim shakllarning yanada ko'payishini ta'minlaydi. Omonimlarning morfologik xususiyatlari, grammatik o'zgarish imkoniyatlari va etimologiyasi ham e'tiborga olinishi ahamiyatlidir.

"O'zbek tili omonimlari lug'ati", "O'zbek tilining izohli lug'ati" kirmay qolgan omonim birliklar, omonim iboralar, omonim shakllar tizimini, yozma manbalardan olingan matnlar, me'yoriy nutq materiallaridan iborat ma'lumotlar bazasini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Alisher Navoiyning "Muhokamat-ul lug'atayn" asarida keltirilgan omonimlar ta'rifi, omonim so'zlar, omonimlar asosidagi tuyuq

janri va tajnis, iyhom san'atlari tahlili o'rganilib, buyuk o'zbek mu-tafakkirlarining leksikologiya, so'zning shakl va ma'no munosabati-ga ko'ra turlari, semantik paradigmalarga doir fikrlari darsliklarda, o'quv qo'llanmalarida, lug'atlarda ilmiy tezis sifatida taqdim etilishi maqsadga muvofiq. O'zbek tilining genetik ildizi hisoblangan turkiy tillar taraqqiyoti, lug'aviy tizimi, semantik usuldagi so'z yasalishi, ko'p ma'noli so'zlardan semantik usulda omonimlarning shaklla-nishini yoritish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Omonimlar lug'atida qiyosiy-tarixiy aspektidagi tahlillar o'z ifodasini topishi lozim. Bu esa umumturkiy qonuniyatlarni anglashga, o'zbek tilining turkiy tillar orasidagi o'rnini belgilashga, boshqa turkiy tillar leksikologiyasi, omonimlar tizimiga doir ma'lumot olishga yordam beradi.

"O'zbek tili omonimlari lug'ati" masalalarini yoritishda modellashtirish metodi qo'llanadi. Bu metod mavzu mohiyatini nisbatan tez va oson yetkazib berishga qaratilgan bo'lib, ma'lumot-larni tizimlashda ham ahamiyatlidir.

"O'zbek tili omonimlari lug'ati" o'zbek tilida faol qo'llanadi-gan omonimlarni farqlash uchun belgilangan teglar tizimini ham o'z ichiga oladi, undan korpus turlarini, ma'lumotlar bazasi, lingvistik maqsadlarga yo'naltirilgan kompyuter dasturlarini yaratishda foy-dalanish mumkin.

Korpus lingvistikasi hozirgi kunda mustaqil rivojlanayot-gan, kelajakda barcha ijtimoiy sohalar taraqqiyotiga xizmat qiladi-gan zamonaviy yo'nalish hisoblanadi. Korpus lingvistikasining aso-siy masalalarini yoritish, milliy korpus, mualliflik korpusi, parallel matnlar korpusi, taqdimot korpusi va boshqa bir qator ma'lumotlar bazasini yaratish, korpus lingvistikasi yo'nalishlari yuzasidan tad-qiqot olib borish uchun, eng avvalo, har bir tilning o'ziga xos tabiati-ni e'tiborga olish lozim bo'ladi. Chunki kompyuter lingvistikasi ham, korpus lingvistikasi ham umumiy emas, xususiy xarakterga ega-dir. Kompyuter va korpus lingvistikasi har bir tilning NLP (Natural Language Proessing) ko'rinishidagi, tabiiy tilning qayta ishlangan, modellashtirilgan shakliga asoslangan holda barcha lingvistik masalalarni hal qilishga yo'naltiriladi.

Omonimlik o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlaridan bo'lib, undan nafaqat tushunchalarni ifodalashda, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, tafakkurni o'stirishda amalda foydalanib kelingan.

Hozirgi o'zbek tili ta'limining yetuk vakillaridan biri, taniqli pedagog ommaviy axborot vositalaridan biridagi chiqishlarida tuyuq janri va undagi omonimlar asosidagi tajnis san'atini "keys"ning eng yorqin namunasi sifatida baholagan edi. Ammo omonimlardagi

bir xil shakl va har xil mazmun tabiiy tilni qayta ishlashda, o'zbek kompyuter-axborot uslubini ishlab chiqishda muammolar tug'diradi. Mazkur muammo kompyuter lingvistikasining tayanch usullaridan biri hisoblangan teglash (razmetkalash) orqali bartaraf etiladi.

Omonimlarga e'tibor qaratish, tafakkurni rivojlantirish omilidan unumli foydalanish bir qator vazifalarni belgilab beradi. Bu borada:

a) omonimiya hodisasining leksik birliklar o'rtasidagi ko'rinishidan boshqa turlariga – grammatik, affiksial omonimlar, omonim frazemalar, birikmalar, simvollarni, shevalardagi omonim birliklarni to'plash, etimologiyasini, kommunikativ, akkumulyativ funksiyalarini yoritish;

b) o'zbek tilining qo'llanish doirasini kengaytirish, texnika tiliga aylantirish, axborot-kompyuter uslubini shakllantirish maqsadida omonimlarning formal asoslarini yaratish; modellashtirishdan unumli foydalanish;

d) omonimlar lug'ati nashrini tayyorlashda yozma manbalardan olingan misollar, me'yoriy nutq materiallariga asoslanish;

e) nazariy ma'lumotlar aks etgan mumtoz ilmiy-badiiy, tarixiy manbalar, omonimlarga oid muammolar yechimiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot natijalari, monografiyalardan hamda shakl va ma'no munosabatiga oid ma'lumotlarni yoritishda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish;

f) mumtoz manbalarda omonimlarga asoslangan badiiy san'at asoslarini tahlil qilish, lingvistik ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

g) o'zbek tilining qo'llanish doirasini kengaytirish, texnika tiliga aylantirish, axborot-kompyuter uslubini shakllantirish maqsadida formal grammatika asoslarini yaratish; modellashtirishdan unumli foydalanish; omonimlarning maxsus teglar bilan razmetkalgan modellarini ishlab chiqish kabi masalalarni nazarda tutish lozim.

O'zbek tili omonimlari lug'atini tuzishda dunyo tilshunosligi yutuqlaridan, xorijiy tajriba natijalaridan foydalanish, o'rni bilan chog'ishtirma aspektdagi tahlillarga murojaat qilish ham o'zini oqlaydi. Omonimlarni farqlash va ma'nosini o'zlashtirishga asoslangan Xitoy kompyuter tilshunosligi tajribalariga murojaat etish maqsadga muvofiq.

